

ZAMONAVIY TA'LIMDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Olimova Mashhura Shuxratovna

FarDU 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada uzluksiz ta'lim, ta'limning vazifasi, ta'lim berish, interaktiv ta'lim haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari interaktiv darslarda didaktik materiallardan foydalanish samaradorligi haqida ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: maktab, ta'lim-tarbiya, interaktiv, o'qituvchi, o'quvchi, didaktika, dars, metod.

ABSTRACT

The article provides information on lifelong learning, the function of education, teaching, interactive learning. The effectiveness of the use of didactic materials in interactive lessons was also discussed.

Key words: school, education, interactive, teacher, pupil, didactics, lesson, method.

Taraqqiyotning yangi yo'lidan borayotgan mustaqil yurtimizda shaxsni intellektual, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan biri, ta'lim tizimini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishdan iborat. Ta'lim tizimidagi rivojlanish jamiyat taraqqiyotining negizini tashkil etadi. Buning uchun muntazam tarzda ta'lim tizimida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, shu orqali talabalarning kompetensiyalarni egallash jarayonlarini jadallashtirish, ularni rivojlanayotgan jamiyat talablariga moslashtirish taqozo etiladi. Sifatli ta'lim olish ehtiyojining kuchayishi O'zbekiston fuqarolarining muhim hayotiy qadriyati sifatida tobora dolzarblashmoqda. Chunki sifatli ta'lim ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va haqqoniylikning asosiy omilidir.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etishda interaktiv metodlarning ham alohida o'rni bor.

Ta'lim – inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ancha tezlashtiradi. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, bu jarayonda u ta'lim oluvchiga

ta'sir ko'rsatadi, bu esa bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada ta'lim oluvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat yordamida yanada mustahkamlanadi. Inson tevarak – atrofdagi voqealik, narsa va hodisalarning mohiyatini amaliy hayotda ularga to'qnash kelish yo'li bilan bilib oladi, ularni o'zlashtiradi. Inson amaliy faoliyat tufayligina ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonini tashkil etuvchi munosabatlar, shuningdek, tabiat hodisalari sirini o'zlashtirib oladi.

Narsalar, buyumlar bilan amaliy muomalada bo'lish natijasida buyumlar sezgi organlariga ta'sir qiladi, sezgilar idrokni keltirib chiqaradi. Amaliyotda insonning faol fikrlash faoliyati yuzaga keladi. Fikrlash yordamida u real voqealikni chuqur tushunadi.

Ta'lim deganda shaxsning jismoniy va ma'naviy kamol topishi, uning ongli ravishda ayrim ibratli faoliyatlari yo'nalishlari tarixan maydonga kelishi, ijtimoiy namuna bo'lishga va har tomonlama barkamollikka intilish jarayoni tushuniladi.

Ta'limning boshlang'ich (dastlabki) **vazifasi** ta'lim oluvchini o'qitishdan iborat. Shuning bilan birga oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarga ma'lumot berish vazifasini bajaradi.

Ta'lim berish – ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati bo'lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ta'lim berish ta'lim oluvchilarning o'qish – o'qitish jarayonining mazmun – mohiyatini ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi.

Interaktiv ta'lim metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ✓ ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ✓ ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ✓ ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ✓ ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ✓ ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- ✓ amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ✓ ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodida o'rganilgan bo'lsa, hozirgi maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi

soʻzlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, oʻqilganini qayta hikoyalashga, umuman olganda, oʻqishning ongli boʻlishiga mutlaqo eʼtibor berilmagan. Ularda koʻproq turli talaffuzga, qiroat bilan oʻqishga, ifodali oʻqishga katta eʼtibor berilgan. Hozir maktablarda oʻqish izohli oʻqish metodida olib borilyapti. Oʻqish darslarida oʻquvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi, kishilar xayoti, ularning oʻtmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati, ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egallaydilar. Bilim olish jarayonida ularga nisbatan munosabat uygʻonadi. Bilim berish bilan oʻquvchi shaxsi tarbiyalanib boradi. V.A. Suxomlinskiy bu haqida shunday deydi: «Bolalar dunyoni va oʻz-oʻzini bila borish bilan birga katta avlodlar yaratgan moddiy va maʼnaviy boyliklar uchun oʻzining masʼulligini oz-ozdan bila borishlari kerak. ...bolaga yaxshilik va yomonlikni toʻgʻri koʻrish imkonini berish kerak. Yaxshilik unda quvonch, zavq, hayajon, maʼnaviy goʻzallikka ergashish ishtiyoqini hosil qiladi; yomonlik qahr-gʻazab, murosasizlik uygʻotadi, haqiqat va adolat uchun kurashga chorlovchi maʼnaviy kuchga toʻldiradi. (1-4 sinf “Oʻqish kitobi” da berilgan asarlar misolida ochib beriladi).

Interaktiv metodlardan foydalanishning maqsadi quyidagilarda koʻrinadi:

- oʻquv materialini oʻzlashtirish va turli xil maʼlumot manbalari bilan ishlash koʻnikmalarini shakllantirish;
- oʻquvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish;
- yangi materialni mustaqil tushunish va oʻzlashtirish koʻnikmalarini shakllantirish.

Interaktiv metodlardagi yangiliklar shartli almashtirishlar, diagrammalar va chizmalar ijodiy tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi, mavhum tushunchalarni “aniqlash” imkonini beradi. Shuningdek, oʻquv materiallarini oʻzlashtirish jarayonida oʻqitish vazifasini bajaradi, oʻquv motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Interaktiv metodlar yana quyidagi vazifalarni ham bajaradi:

- maʼlum bir fikrlash turini rivojlantirish (vizual-majoziy, nazariy, mantiqiy);
- oʻquv faoliyati madaniyatini shakllantirish;
- tadqiqot (ijodiy) oʻquv vazifalarini birgalikda hal qilishda intellektual va hissiy funksiyalarning oʻzaro taʼsirini faollashtirish.

Interaktiv metodlar oʻquv materiallari axborot manbai boʻlib, boshlangʻich taʼlim jarayonini loyihalashda oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirishi uchun “moslashtiriladi”.

Boshlangʻich taʼlim oʻquv materiallari oʻqituvchining shaxsiy yondashuviga muvofiq loyihalandi va mazkur loyiha asosida oʻrganiladigan mavzular oʻquvchilarga maʼlum ketma-ketlikda uzatiladi.

Interaktiv metodlarni loyihalash uni oʻrganish va mustahkamlash, takrorlash va amaliyotga tadbiq qilish, umumlashtirish va nazorat qilish jarayonlari bilan uzviy bogʻliq boʻlib taʼlim jarayonining samaradorligini taʼminlaydi.

So‘nggi yillarda hamdo‘stlik mamlakatlari olimlari bilan bir qatorda o‘zbek olimlari ham darsliklar va o‘quv materiallari, interaktiv metodlar yaratish muammosini tadbiiq etishga alohida e‘tibor qarata boshladilar. Chunonchi, D.Shodiyev , R.Safarova, va M.Rixsiyevalar tomonidan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari darsliklarini tekshirish va baholash mezonlar, maktab darsliklarining yangi avlodiga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish borasida amaliy harakatlar olib borilgan bo‘lsa, M.Maxmudov ta‘limda faol metodlardan foydalanish tamoyillari, o‘quv materiali va uning turli shakllarini loyihalash muammosini tadbiiq etishga oid ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017- y., 6-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
3. Uzviylashtirilgan Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi, - Toshkent, 2010.
4. Antonov A.F., Adilov Q.X. Umumiy ta‘lim mazmunini tanlashning didaktik shartlari. Metodik tavsiyalar. – T.: 1994.
5. Ergasheva G.S. O‘quv materiallarini loyihalashga yangi pedagogik texnologiyalar asosida yondashish // Xalq ta‘limi. – Toshkent, 2004, 3-son.
6. Roziqov O., Ogayev S., Maxmudova M., Adizov B. Didaktika. - T.: Fan, 1997.